



CHEVROLET TRAVERSE



Together
let's drive

Chevrolet Traverse

Chevrolet Traverse – qayerga yo‘l olishingizdan qat’i nazar, ishonchli yordamchingiz. Keng salon, qulaylik va texnologiyalar doimo aloqada bo‘lishga yordam beradi, kuchli xarakter bilan uyg‘unlashgan ifodali tashqi ko‘rinish esa uni yanada jozibador qiladi. Chevrolet – butun oila uchun mo‘ljallangan ishonchli krossoverdir.



IMKONIYATLAR

Yangi o'rta o'lchamli yo'ltanlamas Traverse 2,5 litrli turbinali dvigatel tufayli hayratlanarli imkoniyatlarga ega bo'lib, u avvalgi avlod bilan solishtirganda unumdorlik va yoqilg'i tejamkorligini yanada yaxshilaydi.

Yangi Traverse Z71 bilan tanishing – bu yuqori o'tkazuvchanlikka ega yo'ltanlamas bo'lib, u oilangizni shunchaki manzilga yetkazib qo'ymaydi, balki ularni Traverse ilgari hech qachon bormagan joylarga olib boradi.





Interyer

ICHKI JIMLIKDAN ROHATLANING

Shovqinni yutish va kuzovning germetikligi tizimi avtomobil salonida tashqi shovqinlarning kirib kelishini kamaytiradi. Traverse – yaqinlaringiz bilan bermalol suhbatlashish uchun ideal makon.

G'ILDIRAKLARDA SIZNING QO'RG'ONINGIZ

Chevrolet Traverse o'z sinfidagi eng keng avtomobildir. Katta ichki makon tufayli erkinlik va kenglik hissi butun salon bo'ylab, uchinchi qatordagi o'rindiqlarni ham o'z ichiga olgan holda seziladi.



Interyer

HAMMASI MAYDA-CHUYDA DETALLARDA

Interyerning yorqin bezagi qarama-qarshi tikuvlar bilan uyg'unlashgan. Chevrolet Traverse salonidagi perforatsiyalangan elementlar siz loyiq bo'lgan qulaylik va hashamatni ta'minlaydi.

INTERYER TEXNOLOGIYALARI

“Own it, your way” sinfidagi standart rangli sensorli ekran 17,7 dyuym diagonali. Haydovchi uchun mo'ljallangan asboblari paneli 11 dyuymli ekran bilan jihozlangan. Aylana ko'rinish kamerasi mavjud.

ENG MUHIMI UCHUN JOY

Traverse 8 nafargacha yo'lovchini joylashtirish imkonini beradi, jumladan ikkinchi qator o'rindiqlarining turli variantlari (skameyka yoki alohida kreslolar), shuningdek, o'z sinfida eng katta yukxona hajmini taklif etadi – 2763 litr.



Ishlab chiqaruvchanlik



2,5 L TURBINALI DVIGATEL

300 ot kuchidan ortiq quvvatga ega bo'lgan ushbu dvigatel yuqori unumdorlik bilan birga yoqilg'i tejamliligini ham ta'minlaydi. Shuningdek, dvigatel yoqilg'ini tejash texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, quvvat evaziga samaradorlikdan voz kechishingizga hojat qoldirmaydi.

2.5 l

Dvigatel

7.6 s

Tezlatish
0-100 km/soat

328

Ot
kuchi



Boshqaruvchanlik

MUSTAHKAMLIK VA NAZOKAT UYG'UNLASHGAN JOY

Traverse Z71 yo'ltanlamas imkoniyatlarini qulaylik va universallik bilan uyg'unlashtiradi – aynan sizga kerak bo'lgan xususiyatlar. U osongina qorli yo'llardan tortib toshloq va notekis yo'llargacha bo'lgan sinovlarni yengib o'tadi, shu bilan birga Traverse'ga xos ravon va qulay harakatni saqlab qoladi.

INTELLEKTUAL TO'LIQ YURITMA TIZIMI

Avtomobilni sirpanchiq yoki qor bilan qoplangan yo'llarda ishonchli boshqarishni ta'minlaydi. Tizim yoqilg'i tejamkorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, harakat davomida old va to'liq yuritma rejimlari o'rtasida avtomatik ravishda almashish imkonini beradi.



KICHIKLASHTIRILGAN BURILISH RADIUSI

Tor joylarda, masalan, avtoturargohda yoki burilish qiyin bo'lgan yo'llarda harakatlanishni osonlashtiradi. Yangi Traverse kuzovning yaxshilangan muvozanati, ishlab chiqilgan g'ildirak osmasi va optimal o'lchamlar hamda g'ildiraklarning burilish burchagi tufayli yanada qulay boshqaruvni ta'minlaydi.



FRONTAL TO'QNASHUVNING OLDINI OLIISH TIZIMI

80 km/soatgacha bo'lgan tezlikda old kamera yaqinlashib kelayotgan obyektlarni aniqlaydi va xavf tug'ilganda haydovchini ovozli va vizual signallar orqali ogohlantiradi. Zarurat bo'lsa, tizim avtomatik tarzda tormozni ishga tushiradi. Premier komplektatsiyasida mavjud.



AVTOMATIK FAVQULODDA ORMOZLASH TIZIMI

Past tezlikda harakatlanayotganda old to'qnashuv xavfi aniqlansa, tormoz tizimi avtomatik ravishda ishga tushib, avariya holatining oldini olishga yordam beradi.



FRONTAL TO'QNASHUV HAQIDA OGOHLANTIRISH TIZIMI

Old kamera oldinda joylashgan avtomobilni aniqlaydi. Masofa tez qisqarganda haydovchini xavf haqida ogohlantiradi va YTHning og'ir oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.



HARAKAT YO'LAGIDA QOLISHNI NAZORAT QILISH TIZIMI

60 km/soatdan yuqori tezlikda faollashadi. Yo'l chiziqlariga xavfli darajada yaqinlashilganda, rulga qarshi yo'nalishda kichik kuch berib, avtomobilni yo'lak ichida ushlab turadi.



QATOR ALMASHTIRISHGA YORDAM TIZIMI

Yon radarlar yordamida yon tomondan yaqinlashayotgan avtomobillarni aniqlaydi (70 metrgacha). Bunda yon ko'zgularda sariq indikator paydo bo'ladi.



ORQAGA HARAKATLANISHDA YORDAM TIZIMI

Yon kamera va datchiklar yordamida orqa tomondan yaqinlashayotgan obyektlarni aniqlaydi. Xavf aniqlansa, ovozli va vizual ogohlantirishlar beriladi.



ORQA KO'RINISH KAMERASI

Texnologiya avtomobil orqasidagi hududni proyeksiya qilib ko'rsatadi va orqaga harakatlanishni yengillashtiradi.



AVTOTURARGOHGA YORDAM TIZIMI

Old va orqaga yurib to'xtashga yordam berish tizimi yo'lda turgan harakatsiz obyektlar haqida ogohlantiradi. Orqaga harakatlanishda kamera avtomatik ravishda ishga tushadi, u avtomobil orqasida sodir bo'layotgan voqealar tasvirini Chevrolet MyLink tizimi displeyiga uzatadi va shu bilan birga avtomobilning harakatlanish trayektoriyasini proyeksiyalaydi.



INTELLIBEAM TIZIMI

Chevrolet Traverse'ning old optikasi uzoq nur rejimini avtomatik yoqib-o'chiradi. Kamera orqa chiroqlar va qarshi kelayotgan avtomobillarning faralarini aniqlab, boshqa haydovchilarni ko'r qilmaslik uchun nurni moslashtiradi.



KO'R ZONANI NAZORAT QILISH TIZIMI BILAN QATOR ALMASHTIRISHGA YORDAM

Agar tez yaqinlashayotgan avtomobil yoki ko'r zonada joylashgan transport aniqlansa, yon ko'zgularda ogohlantiruvchi indikator yonadi. Barcha modellar uchun standart jihoz.



XAVFSIZLIK YORITISH TIZIMLARI BILAN JIHOZLANGAN



YUQORI ANIQLIKDAGI AYLANA KO'RINISH (360°) TIZIMI

Bir nechta kameralar yordamida avtomobil atrofidagi hududni tasvirlaydi. Old, orqa va yon kameralar ma'lumotlari birlashtirilib, past tezlikda harakatlanishda, parkovkada va yaqin obyektlar bilan to'qnashuvlarning oldini olishda yordam beradi.





G1W



GB8



GXP



GXN



GXD



GNT

Texnik xususiyatlari

DVIGATEL VA TRANSMISSIYA

Ekologik klass	Evro-5
Dvigatel hajmi (l)	2.5 Turbillangan
Ishchi hajm, sm ²	2498
Silindrlar soni	4 ta, qatorda
Maksimal quvvat (kVt/o.k.)	241 kVt/328 o.k.
Maksimal aylantirish momenti (nm)	442 nm 3500 da
Maksimal tezlik (km/soat)	210
0 dan 100 km/soatgacha tezlanish (sekund)	7.6
Uzatmalar qutisi	AT-8

HAJMLAR VA MASSALAR

Yoqilg'i bakining hajmi (l)	82
3-qator o'rindiqlari ko'tarilgan holatda (l)	648
3-qator o'rindiqlari yig'ilgan holatda (l)	1602
2-3-qator o'rindiqlari yig'ilgan holatda (l)	2763

RUL BOSHQARUVI

Turi	Elektron kuchaytirgichli
------	--------------------------

TORMOZ TIZIMI

Old/Orqa	Disk/Disk
----------	-----------

UMUMIY MA'LUMOT

Turi	Yo'ltanlamas
Yuritgich turi	To'liq
O'rindiqlar soni	7
Uzunligi, mm	5194
Kengligi, mm	2022
Balandligi, mm	1830
G'ildirak bazasi, mm	3072
Klirens, mm	197

OSMA

Old	Makferson ustunlari
Orqa	5 richagli mustaqil

G'ILDIRAKLAR

Shina	265/65R18
-------	-----------

YONILG'I SARFI

Aralash, l	11,2
Shahar, l	11,7
Magistral yo'l, l	9,8

XAVFSIZLIK

• Xavfsizlik yostiqchalari
• ABS – Bloklanishga qarshi tormoz tizimi
• ESC – Yoʻnalish barqarorligi tizimi
• TCS – Sirpanishga qarshi tizim
• EBD – Tormoz kuchlanishlarini taqsimlash tizimi
• Yorugʻlik sensori
• Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi
• Atrofni koʻrish kameralari 3600
• Orqa toʻxtash sensorlari
• Avtomatik tormoz tizimi
• Piyodalarni aniqlash tizimi
• Oldindan toʻqnashuv haqida ogohlantirish tizimi
• Avtoturargohni tark etishda orqadan harakat haqida ogohlantirish
• Havfdan ogohlantiruvchi tebranishli haydovchi oʻrindigʻi
• Yoʻl boʻlagida harakatlanishni taʼminlash tizimi
• Koʻrinmas nuqtalar monitoring
• Tepalikka chiqishda yordam tizimi
• Markaziy qulf
• Markaziy qulfni masofadan boshqarish
• Signalizatsiya
• Dvigatelni pastgi qismi himoyasi

MULTIMEDIA

• Qurilmalar paneli rangli ekrani 11"
• Rangli audio tizim ekrani
• 17,7" Dinamiklar 6
• Apple Car Play/ Android Auto
• Bluetooth
• Audiotizimni rulda boshqarish

KOMFORT

• Charm bilan ishlov berilgan interyer
• Perforatsiyalangan charmdan ishlangan oʻrindiqlar
• Old oʻrindiqlarni isitish tizimi
• Haydovchi oʻrindigʻini 8 yoʻnalishda elektron sozlash
• Old yoʻlovchi oʻrindigʻini 4 yoʻnalishda mexanik sozlash
• Haydovchi oʻrindigʻini bel tayanchini 2 yoʻnalishda elektron sozlash
• Ikkinchi qator oʻrindiqlar ajratilgan (kapitan)
• Rulni teleskopik va balandligini mexanik sozlash
• Charm bilan qoplangan rul chambaragi
• Rulni isitish funksiyasi
• Old va orqa elektron oyna koʻtargichlar (avtomatik yuqoriga/pastga)
• Iqlim nazorati
• Adaptiv-kruiz nazorati
• Panoramali lyuk 3 zonali
• Dvigatelni kalitsiz ishga tushirish va Salonga kalitsiz kirish funksiyasi
• Elektron toʻxtab turish tormozi
• Old qoʻl suyanchigʻi
• Orqa qoʻl suyanchiʻi
• Ikkinchi va uchinchi qatordagi yoʻlovchilari uchun havo kanallari
• Uchinchi qator oʻrindiqlarining mexanik yigʻilishi

EKSTERYER

• Gʻildiraklar
• Zahira gʻildiragi
• Yuxxona eshigini elektron va intellektual ochish
• Qizdirish funksiyasiga ega, elektr orqali yigʻiladigan va burilish chiroqlari oʻrnatilgan orqani koʻrish oynalari
• LED kunduzgi yoritish chiroqlari
• LED chiroqlar
• Uzoqni yoritish chiroqlarini intellektual boshqarish
• Chiroqlar burchagini avtomatik sozlash
• LED orqa chiroqlar
• Reylinglar
• Orqa qoraytirilgan oynalar



UzAuto Motors AJ, O'zbekiston Respublikasi, 100060, Toshkent,
Mirzo Ulug'bek tumani, Amir Temur ko'chasi, 13-uy.
Email: info@uzautomotors.com
Veb-saytlar: www.uzautomotors.com, www.chevrolet.uz
Call-center: +998 (78) 141-77-77

Ushbu buklet chop etilgan paytda amal qilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Biroq UzAuto Motors kompaniyasi mahsulotlarni doimiy ravishda takomillashtirish va yaxshilash siyosatini olib borganligi sababli, u oldindan ogohlantirmasdan dizayn, ranglar va texnik xususiyatlarga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Avtomobillar bilan bog'liq barcha qo'shimcha ma'lumotlarni rasmiy dilerlik markazlaridan yoki texnik hujjatlar orqali olishingiz mumkin. Aksessuarlar va ehtiyot qismlar haqidagi ma'lumotlar UzAuto Motors'ning rasmiy dilerlik markazlarida hamda www.uzautomotors.com va www.chevrolet.uz saytlarida mavjud.